

UO‘K(UDC, УДК): 81’373

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TOPONIM KOMPONENTLI PAREMIYALAR KOGNITIV TAHLILI²¹

Pulatova Muhayyo Azimboyevna

Tayanch doktorant

Abu Rayxon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

E-mail: muhayyo_pulatova@mail.ru

ORCID ID:0000-0002-9771-0361

ANNOTATSIYA	KALIT SO‘ZLAR
Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi toponim komponentli paremiyalar antroposentrik va lingvokognitiv yondashuv asosida qiyosiy-tipologik tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi til, madaniyat va geografik makon o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berishning zamonaviy tilshunoslik uchun muhimligi bilan belgilanadi. Maqolaning maqsadi – ikki genealogik jihatdan farqli tildagi toponimik paremiyalarning konseptual tuzilishi, kognitiv sxemalari va pragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning o‘xshash va farqli jihatlarini yoritishdan iborat. Tadqiqot materiali sifatida Oxford Dictionary of Proverbs, The Dictionary of Modern Proverbs, “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati” va “O‘zbek xalq maqollari” kabi leksikografik manbalardan tanlab olingan toponim tarkibli birliklar xizmat qildi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, komponent va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ikkala tilda ham toponim nomi referentsial vazifadan tashqari kuchli konseptual va simvolik yuk ko‘taradi, toponimik metonimiya va masofaviy giperbola universal lingvomadaniy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ingliz tilidagi paremiyalar ko‘proq siyosiy identitet va reklama kampaniyalaridan, o‘zbek tilidagi paremiyalar esa savdo yo‘llari va og‘zaki an’anadan kelib chiqqan. Tadqiqot xulosalari qiyosiy paremiologiya va lingvomadaniyatshunoslik sohalarida amaliy ahamiyatga ega.	Paremiya, toponim, konsept, freym, konseptual sxema, metafora, lingvokognitiv tahlil, qiyosiy-tipologik metod. Received: June 10, 2026 Accepted: June 19, 2026 Available online: September 5, 2026

²¹ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Pulatova M. Ingliz va o‘zbek tillarida toponim komponentli paremiyalar kognitiv tahlili.// Komparativistika (Comparative Studies). – 2026. – Vol.3, № 4(12) – B. 341-354.

A COGNITIVE ANALYSIS OF PAREMIAS CONTAINING TOPONYMS IN ENGLISH AND UZBEK

Pulatova Muhayyo Azimboyevna

PhD Student of Urganch State University

named after Abu Raykhon Beruni

E-mail: muhayyo_pulatova@mail.ru

ORCID ID:0000-0002-9771-0361

ABSTRACT	KEYWORDS
This article presents a comparative-typological analysis of toponym-based paremias in English and Uzbek, carried out within an anthropocentric and linguo-cognitive framework. The relevance of the study lies in revealing the interrelation between language, culture, and geographical space, which remains one of the pressing issues of modern linguistics. The purpose of the article is to identify the conceptual structure, cognitive schemas, and pragmatic features of toponymic paremias in two genealogically unrelated languages and to reveal their similarities and differences. The material comprises toponym-containing units selected from lexicographic sources such as the Oxford Dictionary of Proverbs, The Dictionary of Modern Proverbs, the Paremiological Dictionary of the Uzbek Language, and Uzbek Folk Proverbs. The comparative-typological, componential, and contextual analysis methods were applied. The results demonstrate that in both languages toponyms carry a strong conceptual and symbolic load beyond their referential function, and that toponymic metonymy and distance-based hyperbole appear as universal linguo-cultural phenomena. At the same time, English paremias mostly originate from political identity discourse and advertising campaigns, whereas Uzbek paremias are rooted in trade routes and oral tradition. The findings are of practical value for comparative paremiology and cultural linguistics.	Paremia, toponym, concept, frame, conceptual schema, metaphor, linguo-cognitive analysis, comparative-typological method.

КОГНИТИВНЫЙ АНАЛИЗ ПАРЕМИЙ С ТОПОНИМИЧЕСКИМ КОМПОНЕНТОМ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Пулатова Мухайё Азимбоевна

Докторант

Ургенчского государственного университета

имени Абу Райхана Беруни

E-mail: muhayyo_pulatova@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-9771-0361

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В статье представлен сравнительно-типологический анализ паремий с топонимическим компонентом в английском и узбекском языках в рамках антропоцентрического и лингвокогнитивного подхода. Актуальность исследования определяется важностью установления взаимосвязи между языком, культурой и географическим пространством для современного языкознания. Цель статьи – выявить концептуальную структуру, когнитивные схемы и прагматические особенности топонимических паремий в двух неродственных языках, а также установить их сходства и различия. Материалом исследования послужили топонимические единицы, отобранные из таких лексикографических источников, как «Оксфордский словарь пословиц», «Словарь современных пословиц», «Паремиологический словарь узбекского языка» и «Узбекские народные пословицы». В работе применялись сравнительно-типологический, компонентный и контекстуальный методы анализа. Результаты показывают, что в обоих языках топоним, помимо референциальной функции, несёт значительную концептуальную и символическую нагрузку, а топонимическая метонимия и гиперболизированное обозначение расстояния выступают как универсальные лингвокультурные явления. При этом источником английских паремий анализируемой группы чаще всего являются сфера политической коммуникации и рекламные кампании, тогда как возникновение узбекских паремий связано с торговыми путями и устной традицией. Выводы исследования имеют практическое значение для сравнительной паремиологии и лингвокультурологии.	Паремия, топоним, концепт, фрейм, концептуальная схема, метафора, лингвокогнитивный анализ, сравнительно-типологический метод.

KIRISH

Til va madaniyat o'rtasidagi munosabat zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari, geografik muhiti va milliy psixologiyasi til birliklarida xususan, paremiyalarda eng to'liq ifodalanadi. Ularda aniq bir joyga nisbatan shakllangan stereotip tasavvurlar va kognitiv baholar mujassamlashgan.

Ingliz tili hind-yevropa tillar oilasining german guruhiga, o'zbek tili esa oltoy tillar oilasi turkiy tillar guruhiga mansub bo'lganligi sababli ingliz va o'zbek tillari tipologik va genealogik jihatdan bir-biridan tubdan farq qiladi, ammo ikkala tilda ham toponim tarkibli maqollarning mavjudligi universal lingvomadaniy qonuniyatni namoyon qiladi. Har qanday til o'z geografik muhitini kognitiv kategoriyalashtiradi va buni paremiyalarda ham kuzatish mumkin. Toponim (yun. *Tonos* – joy, o'rin + *onoma* – atoqli ot) – Yer yuzasining quruqlik qismida joylashgan tabiiy-jug'rofiy va sun'iy (inson yaratgan) obyektlarning atoqli oti: oykonim, oronim, speletonim, xoronim, urbanonim, drimonim, nekronim va boshqalar. Ingliz va o'zbek tillarida toponim komponentli paremiyalar turli xil konseptlarni fodalab keladi.

Konsept - til va madaniyatda mustahkamlangan mental tuzilma bo'lib, predmet yoki hodisa haqidagi bilimlarning butun majmuini o'z ichiga oladi. Toponimik paremiyalarda joy nomi oddiy referentsial vazifadan tashqari kuchli konseptual yukni ham ko'taradi. Masalan, zamonaviy ingliz paremiyalarida uchraydigan "Texas" shtat nomi faqat geografik birlik emas, balki mustaqillik, kuchlilik va erkinlik konseptining moddiy ifodasi, o'zbek tili maqollarida uchraydigan "Buxoro" shahar nomi esa ne'mat va boylikning ramziga aylanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ingliz va o'zbek tillarida aynan toponim komponentli paremiyalar antroposentrik tahlilga tortilgan ishlar uchramaydi. Biroq, ikkala tildagi toponomik ko'lamni umumiy miqyosda o'rgangan olimlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ingliz toponimlari bo'yicha K.Kameron (Cameron K., 1996, 73), J.Fellovs-Jensenlarning (Fellows-Jensen G., 2000, 71), P.Uilyams (Sims-Williams P., 2006, 119) kabi olimlarning asarlarini alohida qayd etish lozim. O'zbek toponimikasi muammolari E.Begmatov (Begmatov E., 2008,

168), T.Nafasov (Nafasov T., 2008, 157), D. Yoʻldashev (Yoʻldashev D., 2012, 143), X. Matyoqubov (Matyoqubov H., 2023, 147) kabi olimlarning ishlarida umumiy tarzda ham tahlil qilingan. Ushbu maqolada toponim komponentli paremiyalar asosan quyidagi manbalardan saralab olindi: The Oxford Dictionary of Proverbs (Speake J., Simpson J., 2008, 625), The Dictionary of Modern Proverbs (Doyle C. va boshq., 2012, 308), “Oʻzbek tilining paremiologik lugʻati” (Berdiyev H., Rasulov R., 1984, 289), “Oʻzbek xalq maqollari” (Mirzayev T. va boshq., 2019, 512) va manbalar havola orqali koʻrsatildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Toponimik paremiyalarikki katta guruhga boʻlinadi: 1) aniq bir joyning xususiyatini tavsif etuvchi paremiyalar (deskriptiv); 2) joy nomini ramziy/konseptual maʼnoda qoʻllovchi paremiyalar (simvolik). Mazkur tadqiqotda ikkala tur ham antroposentrik tahlil qilinadi. Maqola ingliz va oʻzbek tillaridagi toponimik paremiyalarning etimologik, kognitiv-semantik jihatlarini qiyosiy-tipologik metod asosida tahlil qilishga bagʻishlangan.

Tahlil va natijalar. “*Don’t mess with Texas*” (Doyle C. va boshq., 2012, 263) (Texasni iflos qilma/ Texasni axlatga toʻldirma) xalq ogʻzaki ijodidan emas, balki ijtimoiy reklama kampaniyasidan kelib chiqqan paremiya hisoblanadi. 1985-yilda Texas Davlat Yoʻl Departamenti tomonidan yoʻl boʻylaridagi axlatga qarshi kurash maqsadida ishlab chiqilgan ushbu slogan reklama agentligi tomonidan yaratildi. Dastlab koʻchalardagi “Don’t Mess with Texas” yozuvi oddiy ekologik chaqiriq boʻlgan. Biroq slogan oʻzining asl semantik chegarasini tez orada yengib oʻtdi. Texas mentalitetidagi qattiqqoʻllik, mustaqillik va “kimning ham haddi bor?” ruhiyati bu qisqa iborani toʻla egallab oldi. 1986-yilda iboraga musiqachilar (Stevie Ray Vaughan va boshqalar) ovoz berishi, soʻngra siyosiy nutqlarda va xalqaro ommaviy axborot vositalarida qoʻllanilishi uning maqolga aylanish jarayonini tezlashtirdi. 1990-yillarning oʻrtasiga kelib maqol lugʻatlarga kirib, paremiyologik maqom kasb etdi. Paremiyada *kuch* tushunchasi *geografik makon* konsepti bilan uygʻunlashib, *muqaddaslik* – *daxlsizlik* sxemasini yuzaga keltiradi.

“*As California goes, so goes the nation*” (Doyle C. va boshq., 2012, 46) (Agar Koliforniya olgʻa yursa, millat ham olgʻa boradi) maqoli XIX asrning oxiri – XX

asrning boshlarida Amerika siyosiy leksikasida paydo bo'ldi. Iboraning ommalashib paremiyaga aylanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi: 1. Kaliforniyaning aholisi va YaIM bo'yicha mamlakat ichidagi yetakchi o'rnini mustahkamlashi; 2. Silicon Valley innovatsiyalari va Gollivud ta'sirining butun millat madaniyatiga singib borishi; 3. siyosiy tendentsiyalar avval Kaliforniyada joriy etilishi, keyin boshqa shtatlarga tarqalishi. Paremiyada yo'l ko'rsatuvchilik freymi mavjud. Kaliforniya – innovatsiya manbai, qolgan shtatlar – imitatorlar sifatida tasvirlanadi. Kaliforniya – yo'lda birinchi qadam tashlovchi peshqadam subyekt, nation esa uning izidan boradigan passiv ob'ekt. Bugungi kunda maqol ba'zilar uchun u Kaliforniyaning progressiv roli haqidagi ijobiy bayon; boshqalar uchun esa ogohlantirish ya'ni “agar Kaliforniyaning ekstremal yo'li butun mamlakatga tarqalsa, bu xavflidir” mazmunida ishlatiladi. Siyosiy qutublanish sharoitida bir xil ibora turli tomonlar tomonidan tamoman qarama-qarshi maqsadlarda qo'llanilmoqdabu paremiyalarning pragmatik polisemiyasiga misol bo'la oladi.

“*What happens in Las Vegas stays in Las Vegas*” (Doyle C. va boshq., 2012, 150) (Las Vegasda bo'lgan narsa, Las Vegasda qoladi) sun'iy kelib chiqishga ega paremiya. 2003-yilda Las Vegas Convention and Visitors Authority (Konventsiya va tashrif buyuruvchilar organi) tomonidan ishlab chiqilgan reklama shiori sifatida yaratilgan. Bu shior Las Vegasni sirli, erkin va hazil-zavq shahri sifatida brendlashtirish maqsadida xizmat qildi.

Biroq ibora ijodkorlarining o'zlari ham kutmagan tezlikda xalq leksikoniga singib ketdi. 2004-yilga kelib ibora lug'atlarda mustaqil birlik sifatida qayd etildi; 2005-yilda “*What Happens in Vegas Stays in Vegas*” filmiga nom berdi; 2010-yillarda esa formula shunchaki Joy nomi (Las Vegas) o'rniga istalgan shahar, muassasa, yig'ilish yoki korporativ tadbir nomini qo'yib ishlatish imkonini beruvchi produktiv sintaktik sxemaga aylangan: “*What happens in the office, stays in the office*” kabi. Paremiya geografik chegaralanganlik prinsipiga asoslanadi. Konseptual sxemaga asosan *makon = maxsus zona* bo'lib, bu zonada oddiy ijtimoiy normalar va axloqiy qoidalar to'xtatiladi. Maqol *sirlilik - ijozat – chegaralanganlik* freym uchburchagiga asoslanadi.

“Yorkshire born and Yorkshire bred, strong in the arm and weak in the head” (Speake J., Simpson J., 2008, 29) (Yorkshirda tug‘ilgan va Yorkshir nonini yegan, bilaklari kuchli va aqli kuchsiz) ingliz tilining eng qadimgi paremiyalaridan biri bo‘lib, uning yozma manbalarda qayd etilishi XVI–XVII asrlarga to‘g‘ri keladi. Iboraning strukturasi juft qofiyali ikki misrali she‘rbo‘lib, bu uning xalq og‘zaki ijodidan kelib chiqqanligini ko‘rsatadi: qofiyaviy va ritmik tuzilish og‘zaki xotirada saqlanishni osonlashtiradi.

Yorkshire Angliyaning shimoliy qismi bo‘lib, uning aholisi janubliklar tomonidan bag‘ri keng, mehnatsevar, ammo qo‘pol va sodda sifatida tasvirlanib kelgan. *“Strong in the arm”* iborasi dehqonchilik va qo‘l mehnati madaniyatiga, *“weak in the head”* esa intellektual tahsildan uzoqlik tasavvuriga ishora qiladi. Bu maqol ijtimoiy-geografik diskriminatsiyaning paremiologik ifodasibo‘lgan paremiya antonimik parallelizmiga asoslanadi: *jismoniy kuchli = aqliy zaif*.

“There is always something new out of Africa” (Speake J., Simpson J., 2008, 361) (Afrikada hamisha yangi nimadir bor). Oxford lug‘atidagi ma’lumotlarga ko‘ra ushbu maqol antik dunyoning buyuk faylasufi Aristotelga (miloddan avvalgi IV asr) borib taqaladi. Aristotel buni Afrikadagi hayvon turlarining xilma-xilligiga nisbatan ishlatgan. Afrika toponimi *si*r konseptini ifodalaydi shuningdek, *noma’lumlik* freymini jonlantiradi. Inson ongi *“Afrika”* tushunchasini uzoq vaqt davomida *“noma’lum makon”* deb qabul qilgan. Kognitiv darajada bu maqol *“Kutilmagan hodisalar manbai”* sxemasini yaratadi. Bu maqolda *makon* – *xususiyat* metaforasi ishlaydi. Bugungi kunda bu maqol ishlatilganda ko‘proq Afrikaning salohiyati va global o‘zgarishlardagi roli nazarda tutiladi, ko‘pincha ilm-fanda qo‘llaniladi.

“When in Rome, do as the Romans do” (Speake J., Simpson J., 2008, 426) (Rimda ekanligingda Rimliklardek qil). Bu paremiyaning tarixi milodiy IV asrga, xristianlikning shakllanish davriga Avliyo Amvrosiy va Avliyo Avgustinlarga borib taqaladi. Maqolning asoschisi sifatida Milan episkopi Avliyo Amvrosiy (St. Ambrose) tan olinadi. Hikoyaga ko‘ra, Avliyo Avgustin Milanga kelganida, u yerdagi xristianlar shanba kuni ro‘za tutmasligini ko‘radi (Rimda esa shanba kuni ro‘za tutish odat edi). Avgustin bu qarama-qarshilikdan hayron bo‘lib, Amvrosiyga

murojaat qiladi. Amvrosiy unga shunday javob beradi. “Cum Romae fueris, Romano vivito more; cum fueris hic, vivito sicut ego.” (Rimda bo‘lganimda, Rim odatiga ko‘ra ro‘za tutaman; bu yerda [Milanda] bo‘lganimda esa, o‘zimning [mahalliy] odatimga ko‘ra ish tutaman.) Bu lotincha ibora asrlar davomida sayqallanib, 1530-yillarda ingliz tilida “When thou art at Rome, do as Rome doth” shaklida paydo bo‘lgan va hozirgi ixcham ko‘rinishiga kelgan. Paremiyada *makon – qo‘yilgan tartib* metaforasi mavjud. Har bir joyning o‘z normalari bor va ularga moslashish kerak. Bu madaniy adaptatsiya konseptini ifodalaydi. Paremiya orqali tayyor “shablon” (script) taklif qilinadi. Shuningdek, agar siz ko‘pchilik qilayotgan ishni qilsangiz, qanday harakat qilish haqida ortiqcha o‘ylashingiz va qaror qabul qilishingiz shart emas. Bu qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va miya resurslarini tejaydi. Maqol axloq va odobning mutlaq emas, balki nisbiy ekanligini uqtiradi. Inson ongi “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri” tushunchalarini geografik koordinatalar bilan bog‘lay boshlaydi. Bugungi kunda bu maqol nafaqat sayohatlarda, balki yangi ish joyiga kirgan xodimga kompaniya qoidalariga moslashish uchun yoki har qanday yangi muhitga moslashish ma’nolarida ishlatiladi.

O‘zbek tilidagi “*Axmoqqa To‘ytepa bir tosh*”, “*Axmoqqa Quva bir tosh*”, “*Axmoqqa Kosondir bir tosh*” paremiyalari bir xil semantik tuzilishning geografik variantlari hisoblanadi. To‘ytepa (Toshkent viloyati), Quva (Farg‘ona viloyati) va Kosondir (Qashqadaryo viloyati) turli mintaqalardagi aholi punktlari bo‘lib, ulardagi umumiy belgi nisbatan uzoqlikdir (Berdiyev H., Rasulov R., 1984, 21).

Ahmoq + uzoq joy nomi + bir tosh. Bu erda “bir tosh” iborasi qiyosiy kichiklashtiruvchi vazifada keladi: uzoq yo‘l, katta masofa – lekin aql zaif kishiga hamma narsa yaqin, chunki u masofani to‘g‘ri baholay olmaydi. Kognitiv nuqtai nazardan *bilish = masofa sezish* metaforasi ishlaydi: idrokli kishi uzoq va yaqinni farqlay oladi; noadon esa hamma narsani bir xil baholaydi.

Ushbu maqollar variantlarining uch xil joy nomi bilan yuzaga kelishi tipologik jihatdan muhim: bu paremiyalarning tarqalish jarayonida har bir mintaqa o‘ziga yaqin toponimni qo‘yib ishlatganini ko‘rsatadi. Bunday holat ingliz tilida ham

kuzatiladi: “What happens in Vegas stays in Vegas” formulasining turli shaharlar nomiga moslashtirilishi shu hodisaning universal ekanligini isboti hisoblanadi.

“*Gap desang qop-qop, Ish desang, Ashtarxondan top*” o‘zbek paremiyologiyasining eng ilmiy jihatdan qiziqarli namunalaridan biri. Ashtarxon (hozirgi Astrakhan, Rossiya) – XVI–XVII asrlarda O‘rta Osiyo savdogarlari uchun muhim savdo markazi bo‘lgan va Volga bo‘yidagi ushbu shahar ko‘pincha uzoq va olisni ifodalash uchun ramziy nom sifatida ishlatilgan. Variantlari: “*Gap desang qop-qop, Ish desang Olatog‘dan top*” (Berdiyev H., Rasulov R., 1984, 72) (Toshkent viloyatidagi tog‘ tizmasi), “*Gap desang qop-qop, Ish desang, Samarqanddan top*” har bir variant o‘z mintaqaviy og‘zaki an‘anasiga mansub.

Paremiyalarning semantik tuzilishi qarama-qarshilikka asoslanadi. Paremiyalardagi shaharlarning geografik uzoqligi ishning qiyinligini metaforik kuchaytiruvchi vazifasida keladi va ish qilmasdan faqat gapiruvchilarni tanqid qilish uchun ishlatiladi. Gap bilan ish o‘rtasidagi nomutanosiblik universal axloqiy tanqid mavzusi bo‘lib, O‘rta Osiyo madaniyatida u “*martaba emas, mehnat*” qadriyat tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbek xalq maqollari to‘plamida “*Gap desang qop-qop, Ish desang betob*” (Mirzayev T. va boshq., 2019, 30) shaklidagi onomastik birlik qatnashmagan variant ham mavjud. “*Xushomad desang qop-qop, bir pul desang Samarqanddan top*” variant oldingi maqolning yanada keskinlashtirilgan ko‘rinishi: xushomad (yolg‘on maqtov, yasama ta’rif) bilan pul (haqiqiy qadriyat) qarama-qarshi qo‘yiladi.

“*Ming Makka ziyoratidan bir ko‘ngil imorati yaxshi*” (Berdiyev H., Rasulov R., 1984, 144) maqolio‘zbek paremiyologiyasining eng chuqur falsafiy-diniy qatlamiga mansub. Makka - islom dunyosida muqaddas shahar va ziyoratgoh. “Ko‘ngil imorati”- ma’naviy poklanish, ichki tinchlik va ruhiy yetuklik metaforasi. Maqolda ming marta ziyorat qilish emas, bir marta ko‘ngil tuzatish afzalroq ekanligi uqtiriladi. Premiyada “Imorat” so‘zi metaforik qo‘llanilgan. Paremiya Makka ziyoratini inkor etmaydi, balki ziyoratning maqsadi ichki tozalanish ekanligini ta’kidlaydi. Butasavvuf falsafasidagi niyat tushunchasi bilan uyg‘un. Ya’ni amalning qiymati niyatga bog‘liq. Maqolning yana bir varianti “Bir ko‘ngil imorati

- ming Makka ziyorati” semantik jihatdan bir xil, ammo ritorik tuzilish o‘zgartirilgan: endi asosiy ta’kid ko‘ngil imoratida, va bu inversiya qiymat tartibini yana ham keskin ifodalaydi.

“*So‘rab-so‘rab Makkaga boribdi*”/“*So‘rab-so‘rab Makkani topibdi*”/“*Qidirib-qidirib Makkani topsa bo‘lar*” (Berdiyov H., Rasulov R., 1984, 266) variantlari o‘zbek xalq tafakkuridagi izlanuvchanlik va sabot qadriyatini *Makka* obrazi orqali ifodalaydi. Toponim Makka bu yerda ulug‘ maqsad, erishish qiyin bo‘lgan ideal ramzi sifatida qo‘llangan – bu antroposentrik jihatdan muhim semantik siljish. Kognitiv sathda maqol “yo‘l – maqsadga erishuv” konseptual metaforasi asosiga qurilgan: *Makkaga* yetib borish – hayotda murod-maqsadga erishishning universal qolipidir. Aksiologik nuqtayi nazardan esa maqol o‘zbek madaniyatidagi ikki qadriyatni – bilim izlash (so‘rash, qidirish) va matonat (davom etish)ni – birlashtiradi; ya’ni maqsadga yetishda na kuch, na boylik, balki izquvarlik va kamtarlik hal qiluvchi omil sifatida ko‘rsatiladi. Pragmatik jihatdan bu maqol muloqotda rag‘batlantirish va yo‘l-yo‘riq vositasi sifatida ishlatiladi – “qo‘rqma, so‘ra, izla, topasan” degan yashirin direktivlik nutq akti seziladi. Shunday qilib, *Makka* toponimi bu maqollar guruhida ikki qarama-qarshi semantik vazifani bajaradi: bir tomondan, muqaddas va uzoq maqsad; ikkinchi tomondan, insonning irodasi va izlanishi orqali erishiladigan haqiqiy natija ramzi, bu esa maqolning chuqur antroposentrik mohiyatini belgilaydi.

“*Tokni qirqmasang, Qashqarga yetadi*” (Berdiyov H., Rasulov R., 1984, 201) Qashqar (Kashgar) – Xitoyning Shinjon o‘lkasidagi shahar bo‘lib, O‘rta Osiyo savdogarlar uchun Ipak yo‘lining muhim nuqtasi bo‘lgan. Maqolning literal ma’nosi: tokni o‘z vaqtida qirqmasang (o‘stirmasang, parvarish qilmasang), u mana shunchalik o‘sib ketadi.

Qashqarning uzoqligi haddan oshiq o‘sishning metaforidir. Maqolda *e’tiborsizlik = cheksiz o‘sish* sxemasi mavjud. Maqolning amaliy konteksti bog‘dorchilik, chorvachilik va umuman xo‘jalik yuritishda tartib va intizomning ahamiyati haqida.

“Eshak makkaga borib halol bo‘lmas, yaxshi so‘z ko‘p aytilsa ham, malol bo‘lmas” (Berdiyev H., Rasulov R., 1984, 238) maqoli axloqiy-ta’limiy yo‘nalishga mansub bo‘lib, asosiy g‘oyasi: ichki mohiyat tashqi sharoitga qarab o‘zgarmaydi. Eshak - o‘zbek folklorida qaysarlik, daydilik va aql zaifligining ramzi. Makka – islom olamida axloqiy poklanish va ruhiy yangilanish joyi hisoblanadi. Hatto maqom beruvchi muqaddas joy ham eshakni o‘zgartira olmaydi.

“Davri o‘tdi, davri o‘tdi, davri Xuroson o‘tdi” (Berdiyev H., Rasulov R., 1984, 75). Paremiyada ishlatilgan Xuroson toponimi Markaziy Osiyoning buyuk madaniy-siyosiy markazi (hozirgi Shimoliy Afg‘oniston, Eron va Turkmaniston hududlari). Temuriylar va Somoniylar davrida ulkan ilmiy-madaniy markaz bo‘lgan. Xuroson toponimi *oltin davr, ulug‘vor tamomlanish, buyuklikning o‘tkinchiligi* ramzi hisoblanadi. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro davrida bu hududo‘zbek davlatchiligi va madaniyati uchun “Renesans” (uyg‘onish) davri edi deyish mumkin. Xuroson o‘zbek mentalitetida “farovonlik”, “madaniyat” va “oltin davr”ning timsoli (prototipi). “Xuroson” so‘zi ongda Navoiy, ilm-fan, tinchlik va boylik assotsiatsiyalarini uyg‘otadi. Shuning uchun, miya har qanday tugagan yaxshi narsani “Xuroson” konsepti bilan bog‘laydi.

Xuroson o‘tdi – deganda, o‘sha ulug‘vorlik, o‘sha madaniy muhit va o‘sha farovon hayot ortda qolgani tushuniladi. Bugungi kunda o‘zbek tilida asosan o‘tgan baxtli kunlarga bo‘lgan sog‘inch, biror buyuk shon-sharaf davrining tugashi yoki qo‘ldan boy berilgan imkoniyatlarga nisbatan ishlatiladi. Masalan, keksa avlod vakillari nutqida bu paremiya ishlatilganda hamma narsa mo‘l-ko‘l, tinch va fayzli bo‘lgan, “oltin davr” nazarda tutiladi. Shuningdek, biror sohadagi inqiroz yoki o‘zgarishda, masalan, an’anaviy hunarmandchilik yoki eski uslubdagi ishlash tarzi o‘rnini texnologiya egallaganda, eski tizimning tugaganiga ishora sifatida ishlatiladi.

Yoki bo‘lmasa inson o‘zining kuchga to‘lgan, omadi chopgan paytlarini eslab, biroz mahzunlik (nostalgiya) ohangidahozirogi holatiga nisbatan aytishi mumkin. Turli xil kontekstlarda *o‘tkinchilik, tarixiy xotira, nostalji, vaqt kabi* konseptlarni ifodalab kelishi mumkin.

“Qul qutursa, Qo‘ng‘irotdan top” (Mirzayev T. va boshq., 2019, 238)

Qo‘ng‘irot – Qoraqalpog‘istondagi shahar bo‘lib, an‘anaviy tasavvurlarda uzoq va chegara joyi sifatida tushunilgan. Agar *“Qul qutursa”* – xizmatkor yoki qaram kishi o‘zini yo‘qotib qo‘ysa, *“Qo‘ng‘irotdan top”* – eng uzoq joylardan qidirasan, ya‘ni topib bo‘lmaydi ma‘nosida ishlatiladi. Paremiyaning semantik ma‘nosi *mavhumlikning* bevosita ifodalanishidir. Maqol ijtimoiy nazorat tizimining parchalanishini va *“deviant”* xatti-harakatni keskin tanqid qiladi. Qo‘ng‘irot – bu yerda shunchaki uzoq joy emas, balki tartibsizlik va nazoratdan chiqishning ramziy koordinatasi hisoblanadi.

XULOSA

Toponimik paremiyalar ikki tilning ham paremiyologik fondida muhim o‘rin tutadi. Ular joy nomini referentsial emas, balki konseptual va ramziy ma‘noda qo‘llab, murakkab ijtimoiy stereotiplar, qadriyat tizimlari va kognitiv sxemalar butun bir lug‘aviy formulada ixchamlashtirishga erishiladi. Ikkala tilda ham toponymik metonimiya, masofaviy giperbola universal lingvistik hodisalar sifatida yuzaga chiqdi. Bu turli tillardagi til jamoalari joy va makon tushunchasini ishlashning umumbashariy kognitiv mexanizmlarini qo‘llashini ko‘rsatadi.

Har ikkala tildagi maqollarda ham toponimik metonimiya kuzatiladi. *“Texas”* deganda Texasliklar va ularning xarakteri, *“Buxoro”* deganda Buxorolik oddiy insonlar yoki savdogarlar va savdo madaniyati tushuniladi. Ikkala tilda ham joy nomi butun ijtimoiy tizimni ifodalaydi. Shuningdek, o‘zbek tilida uzoq joylar haddan oshiqlikning metaforidir. Ingliz tilidagi maqollar aksariyat hollarda reklama yoki siyosiy kampaniyalardan kelib chiqqan. O‘zbek tilidagi maqollar esa aksariyat og‘zaki an‘anadan kelib chiqqan va ko‘proq tarixiy-iqtisodiy kontekstga (savdo yo‘llari, dehqonchilik) asoslanadi. Yana bir farqli jihati shundaki, ingliz maqollari mustaqillik, siyosiy identitet (Texas, California, Las Vegas, Yorkshire) mavzularida; o‘zbek maqollari esa mehnat va yalqovlik, ziyorat va ma‘naviyat, savdo va boylik, ijtimoiy nazorat mavzularida ko‘proq. Bu ikki madaniyatning turli qadriyatlar tizimini aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Begmatov E., Ulukov N. O'zbek onomastikasi. – Namangan, 2008. – 168 b.
2. Berdiyev H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – T., 1984. – 289 b.
3. Cameron K. English Place-Names. – London: Batsford, 1996. – Pp. 73–86.
4. Doyle C. C., Mieder W., Shapiro F. The Dictionary of Modern Proverbs. – New Haven; London: Yale University Press, 2012. – 308 p.
5. Fellows-Jensen G. Vikings in the British Isles: The Place-Name Evidence // *Acta Archaeologica*, 2000. Vol. 71 (1). – Pp. 135–146.
6. Matyoqubov H. O'zbek va ingliz toponimlari antroposentrik qiyosi: Filol. fan. nomz. ... diss. – Urganch, 2023. – 147 b.
7. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2019. – 512 b.
8. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – 512 b.
9. Mirzayev T., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. 2 tomlik. – Toshkent: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1987. – 368 b.
10. Nafasov T., Tursunov Sh. Qarshi shahri mahalla va ko'chalari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 157 b.
11. Qanotli so'zlar: Maqollar, matallar, hikmatli so'zlar / To'plab nashrga tayyorlovchi Ye. Siddiqov. – T.: Yosh gvardiya, 1986. – 256 b.
12. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Nega shunday deymiz. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – 352 b.
13. Sims-Williams P. Ancient Celtic Place-Names in Europe and Asia Minor. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2006.
14. Speake J., Simpson J. Oxford Dictionary of Proverbs. Fifth edition. – N.Y.: Oxford University Press, 2008. – 625 p.
15. Yo'ldashev D. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tahlili: Filol. fan. nomz. ... diss. – Nukus, 2012. – 143 b.

REFERENCE

1. Begmatov E., Ulukov N. (2020). Uzbek Onomastics. Тошкент.
2. Berdyarov H., Rasulov R. (1984). Paremiological dictionary of the Uzbek language. Tashkent.
3. Cameron K. (1996). English Place-Names. London: Batsford.
4. Doyle C. C., Mieder W., Shapiro F. (2012). The Dictionary of Modern Proverbs. New Haven; London: Yale University Press.
5. Fellows-Jensen G. (2000). Vikings in the British Isles: The Place-Name Evidence // *Acta Archaeologica*, Vol. 71 (1). Pp. 135-146.
6. Matyakubov H. (2021). Anthropocentric comparison of Uzbek and English toponyms: Philol. science. candid. ... diss. Тошкент.
7. Mirzaev T., Musakulov A., Sarimsakov B. (2019). Uzbek folk proverbs. Tashkent: Sharq.
8. Mirzaev T., Musakulov A., Sarimsokov B. (2005). Uzbek folk proverbs. Tashkent: Sharq.
9. Mirzaev T., Sarimsakov B. (1987). Uzbek folk proverbs. In 2 volumes. Tashkent: Fan Publishing House of the Uzbek SSR.
10. Nafasov T., Tursunov Sh. (2008). Mahallas and streets of the city of Karshi. Tashkent: Ma'naviyat.
11. Winged Words: Proverbs, Sayings, Wise Words / Collector E. Siddiqov. (1986). T.: Young Guard.
12. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. (1987). Why do we say that? Tashkent: Gafur Gulyam Literature and Art Publishing House.
13. Sims-Williams P. (2006). Ancient Celtic Place-Names in Europe and Asia Minor. Oxford: Wiley-Blackwell.
14. Speake J., Simpson J. (2008). Oxford Dictionary of Proverbs. Fifth edition. N.Y.: Oxford University Press.
15. Yuldashev D. (2012). Historical and etymological analysis of toponyms of Southern Karakalpakstan: Philol. science. candidate. ... diss. Hykyc.